

Ingliz Va O'zbek Tillarida Somatik Birliklar Ishtirok Etgan Paremiyalarning Mavzuviy Guruhlari Hamda Ularning Semantik Tahlili

Jalilova Nilufar Toxirjonovna¹, Jalolov Sherali²

Annotatsiya: Mazkur maqolada har bir xalq madaniyatini namoyon etuvchi, ibratomuz harakterga ega, ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi, somatizmlar ishtirok etgan paremiya(maqol)larning chog'ishtirma tahlili, xususan mavzuviy guruhlar hamda semantik jihatlari haqida so'z yuritiladi. Mavzuviy guruhlar til xususiyati hamda somatik birliklar joylashuviga ko'ra aniqlangan.

Kalit so'zlar: paremiya, somatik birlik, somonik, splanchnik, angionimik, osteonimik, o'z va ko'chma ma'no.

Kirish. Hozirgi globallashgan davrda ilm-fanga bo'lgan yuqori e'tibor tilshunoslikni ham chetlab o'tmayotgani barchamizga ma'lum. Natijada esa, lisoniy tadqiq ko'lami kengayib, tipologik yondashuv asosida paradigmatic munosabatda bo'lmagan tillarni o'zaro qiyoslab o'rganish hamda ularning izomorfik, allomorfik jihatlarni aniqlash tilshunoslarning asosiy tadqiqot obyektiga aylandi desak haqiqatdan yiroq bo'lmaydi. Tillarni qiyoslab o'rganishda til leksik qatlamining asosiy qismini tashkil etuvchi frazeologik birliklar, xususan, paremiya(maqol) lar alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, maqollar turli so'z turkumlariga mansub leksik birliklardan tashkil topadi. Shu kabi birliklarga somatizmlarni ham keltirishimiz mumkin ya'ni somatizm ta'na a'zolarini bildiruvchi barcha leksikaning umumiy nomidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tilshunoslar somatik birliklarni tasniflashda turli xil xususiyatga asoslanganlar. Misol uchun, N.M. Shanskiy uch guruhni aniqlagan: "1. Erkak va ayol tanasining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq tananing umumiy belgilari yoki inson tanasining qismlari; 2. Inson tanasining hayotiylikini va hayotiy funksiyalarini ta'minlaydigan ichki organlarning nomlari; 3. Inson tanasi va uning a'zolari moddasining belgilanishi"². Ushbu tasnifdan farqliroq, Estoniya tili frazeologizmlarni o'rgangan olim F. Vakk somatik frazeologizmlarni 3 guruhga ajratgan:

"1) faqat odamlarni tasvirlaydigan; 2) odamlar va hayvonlarni tasvirlaydigan; 3) faqat hayvonlarni tasvirlaydigan guruhlar"³. Olim yuqoridagi singari genderga e'tibor qaratmay, balki inson va hayvonlarni ta'na a'zolari jihatidan umumiy nomlanishiga jihatidan turlarga ajratgan. E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov somatik til quyidagi beshta hodisadan iborat deb hisoblaydi. 1. imo - ishoralar - kuzatuvchining ko'z o'ngida ongli ravishda bajariladigan tananing asosiy harakatlari ifodasi; 2. yuz ifodalari - mazmunli yuz harakatlari ifodasi; 3. Pozalar – ma'lum vaqt davomida saqlanib turadigan inson tanasining mazmunli pozitsiyalari hodisasi - qisqa yoki uzoq; 5. ruhiy holat va harakatlarning turli alomatlari hodisasi. Nomi keltirilgan to'rtta hodisani - imo ishoralar, mimikalar, pozitsiyalar, yuz ifodalarni qasddan, o'zboshimchalik kabi muhim xususiyat birlashtiradi. Shu bilan birga, odamning yuzi va tanasi beixtiyor odamga xos bo'lgan his – tuyg'ularni ifodalaydi⁴. R. Y. Mugu somatizmlarni quyidagi guruhlariga bo'ladi: 1) inson tanasining qismlari va joylarini (bosh, burun, ko'z va boshqalarni) belgilash uchun ishlatiladigan somonik (yunoncha soma - tana + onim -ism, nom) so'z

¹ NamDU 2-bosqich magistranti

² Ilmiy rahbar, NamDU katta o'qituvchisi

³ Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2017, – Б. 104.

⁴ Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – С. 25.

⁴ Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: Русский язык, 1990. — С. 45



birikmasi; 2) inson tanasining suyaklari va bo'g'imlari (endokondral suyak, tendon va boshqalar) uchun ishlatiladigan osteonimik (yunoncha osteon-suyak) lug'at; 3) inson tanasining ichki a'zolarini (yurak, buyrak, jigar va boshqalarni) nominatsiyalashga xizmat qiladigan splanchnik (yunoncha splanchna - ichkaridan) so'z birikmasi; 4) angionimik (yunon tilidan. Angeion - tomir) so'z birikmasi, inson tanasining qon aylanish tizimini (tomir, kapillyar, arteriya va hokazo) nominatsiyalash uchun xizmat qiladi; 5) yuz ifodalari - yuz mushaklarining mazmunli pozitsiyalari. Agar pozlar imoishoralarning statik analogi bo'lsa, u holda mimikalar yuz ifodalarning statik analogidir; 6) inson tanasining sezgi a'zolarini (hid, eshitish, teginish va boshqalarni) ifodalash uchun ishlatiladigan sensorimik (lot. Sensus - his) lug'ati; 7) inson tanasining kasalliklari, kasalliklarning namoyon bo'lishini bildiruvchi so'zlar (infarkt, gripp, saraton va boshqalar)⁵. Somatizmlarning ushbu mukammal tasnifi soha doirasiga xos so'z, frazeologik birlik, ibora, maqollarni tasniflash hamda tematik guruhlariga ajratish imkonini taqdim etadi. Mazkur maqolada yuqorida nomlari zikr etilgan tilshunoslarning tasnifiga ko'ra ingliz va o'zbek tillaridagi somatik birliklar ishtirok etgan paremiyalarni mavzuviy guruhlarini tahlil qilamiz.

Tahlil va natija. Dunyo tillaridan biri sifatida e'tirof etiluvchi ingliz tilida somatik birlikli maqollarni quyidagicha mavzuviy guruhlariga ajaratamiz:

1. Somonik paremiyalar.

The buyer has need of a hundred eyes, the seller of but one. Xaridorning yuzta ko'zi bo'lishi kerak deb uning sinchkov bo'lishi nazarda tutilmoqda. Ya'ni, ko'zlari bilan bitta mahsulotni emas, balki bir nechtasini e'tibordan chetda qoldirmasligi hamda sotuvchining bir ko'zi bo'lishi hisob-kitobda adashmasligi kerakligi anglatadi.

A long tongue is a sign of a short hand. Sergap insonni ko'p ishlarni amalga oshirish qo'lidan kelmaydi.

Of the ten fingers, some are long and some are short. O'nta barmoqdan ba'zilari kalta, ba'zisi esa uzun, ya'ni insonlarning hayot tarzi bir xil emas.

A clean hand wants no washing. Toza qolni yuvish shart emas, ya'ni yaxshi insonni oqlash shart emas, uning yaxshiligi o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

One hand washes the other. Ushbu maqol o'z ma'nosida kelmay balki, insonlarni bir-biriga yordam berishi hamda qo'llab-quvvatlashi natijasida maqsadga erishadi degan ma'no anglashiladi.

You scratch my back, I'll scratch yours. Sizdan ugina bizdan bugina.

You cannot put an old head on young shoulders. Yosh yelkaga keksa boshni o'rnatib bo'lmaydi; ya'ni barchani aqli o'zini yoshiga yarasha bo'ladi.

Two heads are better than one. Ikkita bosh bir boshdan ko'ra yaxshiroq.

2. Splanchnik paremiyalar

A light purse is a heavy heart. Darhaqiqat, yengil ya'ni ichi bo'sh karmon-bir so'z bilan aytganda, kambag'allik kayfiyatni tushirib, yurakni siqadi.

A heavy purse makes a light heart. Hamyoni to'la inson xavotirda bo'lmaydi, o'zini baxtsiz xis etmaydi.

Poor men seek meat for their stomach, rich men stomach for their meat. Kambag'al qornini to'yg'azish uchun go'sht izlasa, boy go'shti ya'ni yeguligi ko'pligidan oshqozonidan joy izlaydi.


3. Angionimik paremiyalar

Human blood is all of a colour. Hamma insonning qoni bir xil rangda, ya'ni turli millat, elat, irqiga qaramay barchaning kelib chiqishi bitta odamga borib taqaladi.

⁵ Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Дисс.... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. –С. 81-82 с.



Yuqorida keltirilgan maqollarni tahlil va tasnif qilish asnosida, ingliz somatik paremiyalarining ko'chma ma'noga ega ekanligiga guvoh bo'ldik. Undan tashqari bir paremiya tarkibida bir guruhga yoki boshqa-boshqa guruhlariga oid bo'lgan bir nechta somatik birlik kelishi ushbu tilning o'ziga xos xarakteri hisoblanadi. Misol uchun, *a little **body** often harbours a great **soul*** (body-somonik, soul esa splanchnik birlik); *Cold hands, warm heart* (hands- somonik, heart-splanchnik)



O'zbek tilida somatik birliklar ishtirok etgan paremiyalarni quyidagi mavzuviy guruhlariga ajratishni o'rinli hisobladik.

1. Somonik paremiyalar

Ko'z qo'rqqoq- qo'l botir

Oyoqda etiging tor bo'lsa, Dunyo kengligidan ne foyda

Ayagan ko'zga cho'p tushar, Erta tushmasa-kech tushar

Oyog'i katta topganini kiyar, Oyog'i kichik-istaganini

Dushman o'lar, do'st qolar, O'sma ketar, qosh qolar

Sovuq oyoqdan urar, Issiq-boshdan

Yozda xotin quturadi, qishda-burun

2. Splanichnik paremiyalar

Sog' yurak-tog' yurak

Nodoning dili-tilida

Dononing tili-dilida

3. Sensonimik paremiyalar

Mazali so'zga quloq charchamas

Do'stda dushmanning qulog'i bor

4. Angionimik paremiyalar

Qilday tomir bo'lsa, tuqqaniga tortar

O'g'il otasiga o'xshamas, qoni harom.

Kambag'al non yeydi, Boy-qon

5. Osteonimik paremiyalar

Yaxshini so'ksang, suyagidan o'tar,

Yomonni ursang, terisidan o'tar.



O'zbek tiliga xos somatik birliklar ishtirok etgan paremiyalarni beshta mavzuviy guruhi aniqlandi hamda ingliz tili singari bir maqol tarkibida bir yoki bir necha guruhga mansub somatik birliklar ishtirok etishining guvohi bo'ldik (*Do'stning ko'ngli qolguncha, dushmanning bo'yini uzilsin*; ko'ngil-splanchnik, bo'yin-somonik birlik. Ushbu jihat paradigmatic munosabatda bo'lmagan ushbu tillarning o'zaro o'xshash jihatidir.



Xulosa. Ingliz va o'zbek tillariga xos somatik paremiyalarni tahlil qilishda quyidagicha xulosaga kelindi:

1. Ingliz tilida somatik paremiyalarning uchta, o'zbek tilida esa beshta mavzuviy guruhi aniqlandi (allomorfik xususiyat).
2. Chog'ishtirilayotgan tillarda bir maqol tarkibida bir necha yoki bir guruhga mansub somatik birliklar kelishi o'rganildi (izomorfik xususiyat).
3. Ingliz tilida keltirilgan maqollar tarkibidagi somatizmlar ko'chma ma'noga ega bo'lgan bir vaqtda, o'zbek tilida ko'p hollarda o'z ma'nosida kelgan (allomorfik xususiyat).
4. Chog'ishtirilayotgan tillardagi paremiyalar tarkibidagi somatizmlar ot so'z turkumiga mansub bo'lib, sintaktik jihatdan turli gap bo'lagi vazifasida kelgan (izomorfik xususiyat).
5. Ingliz tilida somatizmlar ko'p o'rinlarda ko'plik shaklida keltirilgan, o'zbek tilida esa birlik shaklida kelib, o'z o'rnida –da, -ni, -dan singari qoshimchalar bilan birga qo'llanilgan (allomorfik xususiyat).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2017, – Б. 104.
2. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – С. 25.
3. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. Методическое руководство. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: Русский язык, 1990. — С. 45
4. Мугу Р.Ю. Полисемантизм соматической лексики (на материале русского немецкого языков): Дисс.... канд. филол. наук. – Майкоп, 2003. –С. 81-82 с.
5. Dictionary of English and Uzbek proverbs application by Nargiza Abdullaeva
6. Longman Dictionary of Contemporary English online
7. <https://maqollar.uz/>

